
Analysis of grammatical transformations in publicistic texts

Ismoilova Gulshoda Turaboy qizi
ismoilovagulshoda97@gmail.com

Doctoral Researcher,
Uzbekistan State World Languages University

Annotation *The article provides a comparative analysis of grammatical transformations occurring in publicistic texts translated from Uzbek into English. The theoretical foundations of the concepts of publicism, newspaper language, and media text are explained through the views of scholars in this field, and their role in translation studies is demonstrated. Articles from the website yuz.uz were selected as research material, and the texts published in Uzbek were compared with their English translations. In the course of the analysis, it was determined that there are significant differences in sentence structure and syntactic organization between Uzbek and English. In particular, the formation of word order in both languages, the position of the predicate in the sentence, the placement of the subject and secondary parts of the sentence, as well as the principles of using verb tenses differ from one another. While sentence structure in Uzbek is relatively flexible, strict word order is of primary importance in English. Therefore, these structural differences create certain difficulties in the translation process. In order to overcome these differences and ensure that the translated text is semantically accurate, stylistically fluent, and natural, grammatical transformations are widely used. The results of the analysis showed that among the transformations, changing word order, rearranging sentence elements, and substituting verb tenses according to context are the most frequently used methods. Such changes contribute to increasing the communicative effectiveness of the translated text.*

Keywords *Publicism, newspaper language, media text, translation, grammatical transformation, word order, verb tenses*

Publitsistik matnlarda grammatik transformatsiyalar tahlili

Ismoilova Gulshoda Turaboy qizi
ismoilovagulshoda97@gmail.com

Tayanch doktorant,
O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti

Annotatsiya *Maqolada o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan publitsistik matnlarda uchraydigan grammatik transformatsiyalar qiyosiy tahlil qilingan. Publitsistika, gazeta tili va mediamatn tushunchalarining nazariy asoslari mazkur soha olimlari tomonidan berilgan fikrlar bilan yoritilib, ularning tarjimashunoslikdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Tadqiqot materiali sifatida yuz.uz sayti maqolalari tanlab olingan bo'lib, o'zbek tilida e'lon qilingan matnlar ularning ingliz tilidagi tarjimalari bilan o'zaro solishtirilgan. Tahlil jarayonida o'zbek va ingliz tillarining gap qurilishi hamda sintaktik tuzilishida sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, har ikki tilda so'z tartibining shakllanishi, kesimning gapdagi o'rni, ega va ikkinchi darajali bo'laklarning joylashuvi, shuningdek, fe'l zamonlarining qo'llanish tamoyillari bir-biridan farq qiladi. O'zbek tilida gap tuzilishi nisbatan erkinroq bo'lsa, ingliz tilida qat'iy so'z tartibi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur struktur farqlar*

tarjima jarayonida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ushbu tafovutlarni bartarafetish, tarjima matnining mazmunan aniq, usluban ravon va tabiiy chiqishini ta'minlash maqsadida grammatik transformatsiyalardan keng foydalaniladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, transformatsiyalar ichida ayniqsa so'z tartibini o'zgartirish, gap bo'laklarini qayta joylashtirish hamda fe'l zamonlarini kontekstga mos ravishda almashtirish eng ko'p qo'llaniladigan usullar hisoblanadi. Bu kabi o'zgarishlar tarjima matnining kommunikativ samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar *Publitsistika, gazeta tili, mediamatn, tarjima, grammatik transformatsiya, so'z tartibi, fe'l zamonlari*

Анализ грамматических трансформаций в публицистических текстах

Исмоилова Гулшода Турабой кизи

ismoilovagulshoda97@gmail.com

Базовый докторант,

Узбекский государственный университет

мировых языков

Аннотация *В статье проведён сравнительный анализ грамматических трансформаций, встречающихся в публицистических текстах, переведённых с узбекского языка на английский. Теоретические основы понятий публицистики, газетного языка и медиатекста освещены на основе взглядов учёных данной области, а также показано их место в переводоведении. В качестве материала исследования были отобраны статьи сайта uzuz.uz, при этом тексты, опубликованные на узбекском языке, сопоставлены с их английскими переводами. В ходе анализа было установлено, что в построении предложений и синтаксической структуре узбекского и английского языков существуют значительные различия. В частности, формирование порядка слов в обоих языках, положение сказуемого в предложении, размещение подлежащего и второстепенных членов предложения, а также принципы употребления времён глагола отличаются друг от друга. Если в узбекском языке структура предложения относительно свободна, то в английском языке строгий порядок слов имеет приоритетное значение. В связи с этим данные структурные различия создают определённые трудности в процессе перевода. Для преодоления этих различий и обеспечения семантической точности, стилистической плавности и естественности текста перевода широко используются грамматические трансформации. Результаты анализа показали, что среди трансформаций наиболее часто применяются изменение порядка слов, перестановка членов предложения и замена времён глагола в соответствии с контекстом. Подобные изменения способствуют повышению коммуникативной эффективности переводного текста.*

Ключевые слова *Публицистика, газетный язык, медиатекст, перевод, грамматическая трансформация, порядок слов, времена глагола*

Kirish

Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi davrida publitsistik matnlar jamiyat hayotida alohida o'rin egallaydi. Ommaviy axborot vositalari orqali tarqatiladigan xabarlar nafaqat ijtimoiy-siyosiy voqelikni yoritadi, balki o'quvchi ongiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu bois publitsistik matnlarni boshqa tilga adekvat tarzda ko'chirish, xususan, grammatik jihatdan to'g'ri moslashtirish masalasi tarjimashunoslik va medialingvistika doirasida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "publitsistika" tushunchasiga ham shu mazmunga yaqin tarzda ta'rif beriladi. Unda qayd etilishicha, "publitsistika" so'zi lotincha "publicus" so'zidan olingan bo'lib, "jamiyatga, jamoatchilikka oid" ma'nosini anglatadi va davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalari hamda jamiyatning kundalik hayotiga bag'ishlangan adabiyot turi sifatida izohlanadi. Shuningdek, ushbu janrga xos maqola, ocherk, pamflet, felyeton kabi asarlar majmui publitsistika doirasiga kiradi (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2023). Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, publitsistik matn – jamiyatning dolzarb ijtimoiy-siyosiy hayoti va kundalik voqeliklarini yoritishga qaratilgan, ommaviy axborot vositalarida keng tarqaladigan matn shaklidir. U nafaqat fakt va hodisalarni xolisona bayon etadi, balki o'quvchi yoki tinglovchi ongiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatish, ularni muayyan ijtimoiy-siyosiy qarashlarga yo'naltirish vazifasini ham bajaradi. Shu nuqtada gazeta va uning tili ham alohida ahamiyat kasb etadi. Gazeta – publitsistik uslubning asosiy ifoda vositalaridan biri bo'lib, u tezkor axborot yetkazish, ijtimoiy-siyosiy hayotni yoritish va keng omma bilan muloqot qilishning eng faol shaklidir. Gazeta tili esa publitsistik uslubning amaliy ko'rinishi bo'lib, qisqa, lo'nda, ta'sirchan va tushunarli ifodasi bilan ajralib turadi. U faktlarni tezkor yetkazish bilan birga, o'quvchi dunyoqarashiga bevosita

ta'sir ko'rsatish, ularni muayyan fikr va xulosalarga yo'naltirish vazifasini bajaradi.

Gazeta tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak: Gazeta (ital. gazzetta – chaqa pul) kundalik voqealar tog'risidagi materiallar e'lon qilinadigan davriy bosma nashr. Ommaviy axborot va targ'ibotning asosiy vositalaridan biri. Uning vazifasi jamiyatning axborotga bo'lgan extiyojini, ma'naviy-intelektual talablarini qondirishdan iborat (O'zbekiston milliy ensiklopediya, 2005).

Tilshunos olim D.M. Teshabayeva gazetani yangi so'z, ibora va birikmalarning eng sezgir ko'zgusi sifatida baholaydi. Uning fikricha, gazeta jamiyat hayotining barcha sohalarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni boshqa har qanday vositalardan tezroq aks ettiradi va ko'p hollarda umumxalq leksikasiga kirib kelayotgan yangi so'z va iboralarni qayd etuvchi birinchi yozma manba bo'lib qoladi. Standartlashtirishda ham aynan ommaviy muloqot tili, ya'ni gazeta-publitsistik uslub yetakchilik qiladi (Teshabaeva, 2012).

"Gazeta tili" atamasi ko'pincha "gazeta-publitsistik uslub" atamasi bilan sinonim tarzda qo'llanadi. U gazeta matnlari nutqini funksional-uslubiy farqlashning umumiy tizimi nuqtai nazaridan o'rganishda keng qo'llanadi. Tadqiqotchilar gazeta va publitsistik nutq tizimida zamonaviy tilshunoslikning deyarli barcha uslublari aks etganini ta'kidlashadi va shu sababli uni murakkab hamda ko'p qirrali hodisa sifatida baholaydilar (Васильева, 1982).

Gazeta publitsistik uslubning asosiy ifoda vositasi ekanligini gazeta tili esa publitsistik uslubning amaliy ko'rinishi ekanligiga to'xtalib o'tdik. Bundan tashqari shuni ham takidlashimiz kerakki medialingvistika nuqtayi nazaridan qaralganda publitsistik matnlar mediamatn sifatida talqin qilinadi. Demak, gazeta matnlari publitsistik uslubning asosiy mahsuli hamda mediamatnning muhim ko'rinishi sanaladi. Mediamatn [media + matn] media ko'rinishi va janridagi matn bo'lib ommaviy axborot vositalarida (matbuot,

televideniye, radio, internet va ijtimoiy tarmoqlar) uzatiladigan axborot shakllarini ifodalaydi (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2023).

M.N. Volodina fikricha, "mediamatn zamonaviy jamiyatda axborot almashish jarayonining asosiy vositasi bo'lib, u nafaqat ma'lumot uzatish, balki ijtimoiy qadriyatlarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi" (Володина, 2003).

G. Pocheptsovning ta'kidlashicha, mediamatn "har qanday media mahsuloti yoki kommunikativ matn" bo'lib, u turli media tuzilmalariga (verbal, vizual, akustik yoki multimedia) va turli media muhitlariga (matbuot nashrlari, radio, televideniye, Internet, mobil va sun'iy yo'ldosh aloqalari va boshqalar) kiritilishi mumkin (Почепцов, 1999).

Demak, mediamatn boshqa tilga ko'chirish masalasi tarjimashunoslikda alohida yo'nalish – media tarjimasi sifatida shakllandi. Media tarjimasining nazariy asoslari XX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshlagan bo'lib, XXI asrda yanada rivojlandi. Bu sohadagi dastlabki muhim tadqiqotlardan biri nemis tilshunosi Katherina Reiss tomonidan 1971 yilda chop etilgan "Möglichkeiten und Grenzen der Übersetzungskritik" asaridir. Ushbu ishida u tarjima sifati va matn turlariga asoslangan yondashuv orqali tarjima tanqidining metodologik asoslarini ishlab chiqqan.

Rossiyalik tarjimashunoslar V.N. Komissarov, L.S. Barxudarov va A.D. Shveytser tarjima nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida, xususan media tarjimasining nazariy asoslarini ishlab chiqishda muhim hissa qo'shganlar. Jumladan, V.N. Komissarov o'z tadqiqotlarida tarjimaning kommunikativ jihatlariga e'tibor qaratib, tarjima jarayonining maqsadi, funksiyasi va kontekstga bog'liqligini tahlil qilgan. Bu yondashuv media matnlarini tarjima qilishda ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy nazariy tamoyillarni belgilaydi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, o'zbek va ingliz tillarining grammatik tizimi sezilarli farqlarga ega. Ingliz va o'zbek tillarining til oilalari va tarixiy rivojlanishidan kelib

chiqadigan lingvistik tuzilmalari turli o'lchovlar, jumladan sintaksis, morfologiya va fonologiya bo'yicha sezilarli darajada farqlanadi. Ingliz tili, Hind-yevropa tili sifatida asosan ushbu til oilasidagi ko'plab tillarga xos bo'lgan predmet-fe'l-ob'ekt (SVO) so'z tartibiga amal qiladi. Aksincha, turkiy tillar oilasiga mansub o'zbek tilida odatda turkiy tillar orasida umumiy sintaktik xususiyatni aks ettiruvchi predmet-ob'ekt-fe'l (SOV) so'z tartibi namunasi qo'llaniladi. Shu sababli publitsistik matn tarjimasida grammatik transformatsiyalarning to'g'ri qo'llanishi matnning mazmuniy yaxlitligi va kommunikativ ta'sirini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotimizning yangiligi publitsistik matn tarjimasida uchraydigan grammatik transformatsiyalar maxsus ravishda o'zbek va ingliz tilidagi misollar asosida tizimli tahlil qilishdan iborat. Avvalgi tadqiqotlarda Komissarov, Barkhudarov, Garbovskiy, Lvovskaya, Shveytser, Nevmark, Vinay, Nelyubin, G'ofurov, Qambarov, Mo'minov, Musaev kabi olimlar tomonidan grammatik transformatsiyalar umumiy tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan bo'lsa, ushbu ishda ular aynan media matnlar kontekstida, dolzarb publitsistik materiallar asosida ko'rib chiqildi.

Tadqiqotning maqsadi – o'zbek va ingliz publitsistik matnlarini tarjima qilish jarayonida uchraydigan grammatik transformatsiyalarni aniqlash va ularning kommunikativ funksiyasini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Puslististika va publitsistik uslub tushunchasining nazariy asoslarini ko'rib chiqish;
2. Gazeta tili va mediamatn tushunchalariga izoh berish;
3. Mediamatn tarjimasi tarixi va mediamatn tarjimasi bo'yicha olimlar fikrini ko'rib chiqish.
4. O'zbek va ingliz tillari sintaktik tizimining o'zaro moslashuv xususiyatlarini tahlil qilish;

5. Transformatsiyalarning mazmun va uslubni saqlashdagi rolini ochib berish.

Muammoning tarixiga oid ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Tarjima nazariyasida "transformatsiya" atamasi ilk bor XX asrning 50-yillarida J. Xarris tomonidan qo'llanila boshlangan (Гарбовский, 2004). Ushbu atama tarjima nazariyasiga transformatsion grammatika yo'nalishidan kirib kelgan. Xarrisning fikricha, barcha murakkab sintaktik tuzilmalar oddiy shakllardan tarkib topgan hosila shakllardir. Shu munosabat bilan ularning shakllanishida transformatsion qoidalardan foydalanishga yo'l qo'yiladi, va bu qoidalar keyinchalik tarjima nazariyasiga ham o'tgan. Dastlab transformatsiyaning faqat besh turi aniqlangan edi: komponentlarning o'zaro almashtirilishi, tushirib qoldirish, qo'shimcha kiritish, so'z tartibini o'zgartirish va komponentlarning almashtirilishi (Harris, 1970). Biroq publitsistik matnlardagi grammatik transformatsiyalar alohida tadqiqot ob'ekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqot materiali sifatida O'zbekistonning yetakchi onlayn OAVlaridan biri - yuz.uz saytida e'lon qilingan maqolalar tanlab olindi. Ushbu manbalar zamonaviy publitsistik diskursni aks ettirgani va o'zbek tilidagi yangiliklarni ingliz tiliga tarjima qilishda uchraydigan grammatik transformatsiyalarni ochib berish imkoniyatini berishi bilan ahamiyatlidir.

Asosiy qism

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-lingvistik tahlil va deskriptiv metodlardan foydalanildi. Qiyosiy metod orqali Yuz.uz saytida chop etilgan publitsistik maqolalarning ingliz tiliga tarjimalari o'zbek tilidagi asl variantlari bilan solishtirildi. Deskriptiv yondashuv yordamida grammatik transformatsiyalarning turlari aniqlanib, ularning qo'llanish xususiyatlari izohlandi. Bundan tashqari, kontekstual tahlil usuli qo'llanib, transformatsiyalarning kommunikativ samaradorlikka ta'siri baholandi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, publitsistik matnlarni o'zbek tilidan ingliz tiliga

tarjima qilish jarayonida quyidagi grammatik transformatsiyalar muntazam kuzatildi:

Transpozitsiya (O'rin almashtirish) – so'z yoki gap bo'laklarining o'rnini o'zgartirish orqali sintaktik tuzilmani moslashtirish. Masalan, *"Prezident Shavkat Mirziyoyev 7-mart kuni sanoat uchun muhim minerallar xomashyo bazasini kengaytirish va qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha taqdimot bilan tanishdi"*. *On March 7, President Shavkat Mirziyoyev reviewed a presentation on expanding the raw material base of vital minerals in industry and producing high-value-added products* (Yuz.uz 05.11.2024).

O'zbek tilida **"Prezident Shavkat Mirziyoyev 7-mart kuni ... tanishdi"** qismi (ega) gap boshida kelgan, ingliz tilida esa **"On March 7, President Shavkat Mirziyoyev reviewed ..."** vaqt holi gap boshiga chiqarilgan.

"Prezident Shavkat Mirziyoyev saylovda ovoz berdi". *"Bugun mamlakatimizda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari kengashlariga saylovlar bo'lib o'tmoqda"*. *"President Shavkat Mirziyoyev votes in the elections"*. *"Today, elections to the Legislative Chamber of the Oliy Majlis and the Councils of People's Deputies are taking place in Uzbekistan"* (Yuz.uz 27.10.2024).

"Bugun mamlakatimizda" → **"Today, ... in Uzbekistan"**. O'zbek tilida o'rin holi "mamlakatimizda" vaqt holidan "bugun" so'zidan keyin kelgan. Ingliz tilida esa o'rin holi "mamlakatimizda" so'zi aniqlashtirib "O'zbekiston" so'ziga o'zgartirilgan va gap oxiriga ko'chirilgan. Bu gapning sintaktik tuzilishini o'zgartirish orqali tabiiyroq bo'lishini ta'minlaydi.

"Bo'lajak parlament sayloviga tayyorgarlik ko'rish doirasida DIIHB kuzatuvchilari missiyasi faol ishlayotgani yuqori baholandi." *"The active work of the ODIHR observation mission in preparation for the upcoming parliamentary elections was highly appreciated."* O'zbekcha matnda *"Bo'lajak parlament sayloviga tayyorgarlik ko'rish doirasida"* (zamon yoki sharoit bildiruvchi qism) gap boshida joylashgan bo'lsa, ingliz tilida u gap

oxirida berilgan. Bu grammatik transformatsiyaning o'rin almashtirish (transposition) turiga misoldir.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozon shahrida bo'lib o'tayotgan BRICS sammiti doirasida Vetnam Sotsialistik Respublikasi Bosh vaziri Fam Min Tin bilan uchrashuv o'tkazdi."

"As part of the BRICS Summit in Kazan, the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev met with the Prime Minister of the Socialist Republic of Vietnam Pham Minh Chinh."

O'zbekcha gapda Prezident va uning harakati (uchrashuv o'tkazdi) birinchi bo'lib kelgan, lekin inglizcha tarjimada "As part of the BRICS Summit in Kazan" degan qo'shimcha avval keltirilib, gap tarkibining o'рни o'zgartirilgan.

Fe'l zamonlarini moslashtirish – o'zbek tilidagi hozirgi zamon shakli ko'pincha ingliz tilida Present Perfect yoki Past Simple orqali ifodalanadi. Masalan, "O'zbekiston va Tojikiston yetakchilari telefon orqali suhbatlashdi". "5-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi".

"The President of Uzbekistan holds a phone call with the President of Tajikistan". "On October 5, the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev held a telephone conversation with the President of the Republic of Tajikistan Emomali Rahmon" (Yuz.uz 5.10.2024). Bunda (o'tgan zamon hozirgi zamonga o'zgargan). O'zbekiston va Tojikiston yetakchilari **telefon orqali suhbatlashdi**. The President of Uzbekistan **holds a phone call** with the President of Tajikistan.

"O'zbekiston Prezidenti YXHT DIIHB missiyasi rahbarini qabul qildi". "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25-oktabr kuni Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (YXHT DIIHB) parlament saylovini kuzatish

bo'yicha missiyasi rahbari Duglas Ueykni qabul qildi".

"President of Uzbekistan receives the Head of OSCE/ODIHR Mission". "On October 25, the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev received the Head of the election observation mission from the OSCE Office for Democratic Institutions and Human Rights (ODIHR) Douglas Wake" (Yuz.uz 25.10.2024).

O'zbekiston Prezidenti YXHT DIIHB missiyasi rahbarini **qabul qildi**. President of Uzbekistan **receives** the Head of OSCE/ODIHR Mission. (o'tgan zamon- hozirgi zamon)

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlandiki, o'zbek va ingliz publitsistik matnlarini tarjima qilishda grammatik transformatsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, so'z tartibini qayta qurish va fe'l zamonlarini moslashtirish publitsistik matnning mazmuniy aniqligi va uslubiy ravonligini ta'minlovchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'ldi. O'zbek tiliga xos bo'lgan erkin so'z tartibi ingliz tilining qat'iy sintaktik me'yorlariga moslashtirilishi zarurligi, shu jarayonda gap bo'laklarining joylashuvi qayta tashkil qilinishi kuzatildi. Shuningdek, fe'l zamon shakllarini moslashtirish tarjimada voqelikni vaqt nuqtayi nazaridan aniq va izchil ifodalash imkonini berdi.

Tahlil asosida shuni qayd etish joizki, grammatik transformatsiyalar faqatgina lingvistik tafovutlarni bartaraf etish vositasi bo'lib qolmasdan, matnning kommunikativ samaradorligini ham kuchaytiradi. Bu jihat publitsistik tarjimaning adekvatligi va ekvivalentligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, mediamatn tarjimasida ayniqsa so'z tartibini moslashtirish eng samarali va ko'p qo'llaniladigan grammatik transformatsiyalardan biridir. Kelgusida ushbu jarayonni grammatik transformatsiyalarning boshqa turlari bilan qiyoslash hamda transformatsiyalarni avtomatik aniqlash imkoniyatlarini o'rganish ilmiy izlanishlar uchun istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

References:

1. Гарбовский, Н. К. (2004). *Теория перевода: учеб. для студентов вузов, обучающихся по специальности «Лингвистика и межкультурная коммуникация»*. Москва: Издательство Московского университета.
2. Harris, Z. S. (1970). *Papers in structural and transformational linguistics*. Dordrecht: Reidel.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2022). (III - jild). *Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi*.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2023). (III - jild). *Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi*.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediya. (2000-2005). *Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti*.
6. Почепцов Г. Г. (1999). *Коммуникативные технологии XX века*. Киев.
7. Teshabaeva, D. M. (2012). *Оммавий ахборот vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi* (O'zbekiston Respublikasi OAV misolida) (Filol.f.d.-ri dissertatsiya). Toshkent.
8. Васильева А.Н. (1982). *Газетно публицистический стиль речи*. Москва.
9. Володина М.Н. (2003). Язык СМИ – основное средство воздействия на массовое сознание. *In Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования*. Москва: Изд-во МГУ.
10. <https://yuz.uz/uz>